

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:
№ BD5120400-2.06
2019 yil " " "



«ARXEOLGIK DALA TADQIQOT USULLARI VA TOPILMALARGA
ISHLOV BERISH» FANIDAN

O'QUV DASTUR

Bilim sohasi:	100 000	Gumanitar fanlar va san'at
Ta'lim sohasi:	120 000	Gumanitar soha
Ta'lim yo'nalishi:	5120400	Arxeologiya

Samarqand – 2019

Fanning o'quv dasturi ishchi oquv rejaga muvofik ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:


Abriev R.B.- SamDU arxeologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchi:

Xolmatov N.O'. SamDU "Arxeologiya" kafedrasi dosenti, t.f.n.

Fanning o'quv dasturi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti «Arxeologiya» kafedrasining o'quv – uslubiy kengashining 2019 yil __avgustdagi majlisi __son yig'ilishida muxokamadan o'tgan va fakultet kengashida muxokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:



dost. Xolmatov N.U.

Fanning o'quv dasturi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti o'quv-uslubiy kengashida (2019 yil __avgustdagi __sonli bayyonnoma) va Fakultet kengashida muxokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil __avgustdagi __sonli bayyonnoma)

Fakultet kengashi raisi:



dots. Djo'raqulova D.M.

Kelishildi: O'quv uslubiy boshqaruv boshlig'i:

Aliqulov B.

Kirish

Ma'lumki, arxeologlar yodgorliklarni qazib o'rganish jarayonida turli-tuman manbalarga duch keladilar. Bu manbalardan ilmiy foydalanish uchun arxeologlar birinchi navbatda, topilmalarni avaylab yerdan olish, uni qotirish (konservasiya) va qayta ta'mirlash (restavratsiya) hamda boshqa bir qancha ishlarni amalga oshirish kerak. Arxeologik topilmalarni qazib olish va ularga ishlov berish usullari bilan talabalarni tanishtirish bu maxsus kursning asosiy vazifasidir. Talabalar bu maxsus kurs davomida olgan bilimlarini kurs ishi yozish davomida mustahkamlab boradilar. Ular chizmalar chizish, topilmalarni ta'riflash, kartochkalar tayyorlash, ilmiy adabiyotlardan ko'chirma olish usullari bilan tanishib o'zlarining mustaqil ishlarida ulardan amalda foydalanadilar.

Shuningdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizasiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda "Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish" fanining shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o'rganishdagi o'rni, jahon hamda, mamlakatimiz hududida moddiy-madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi va xususiyatlari munosabatlarining shakllanishi haqida bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalarini o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

"Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- fanning ahamiyati va ijtimoiy fanlar sohasida tutgan o'rni to'g'risida;
- fan va uning tarixiy-madaniy jarayonlarni o'rganishdagi ahamiyati to'g'risida;
- antik va o'rta asrlar davri madaniyatlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda moddiy madaniyati to'g'risida;
- alohida mintaqalar xo'jaligi, moddiy madaniyati, diniy va g'oyaviy qarashlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- daliliy xulosalarni umumlashirish uchun aniq arxeologik ma'lumotlarni;
- arxeologiyaga oid ma'lumotlarni turli mintaqalar o'tmish tarixi va madaniyati muammolarini o'rganishda foydalanishni;
- arxeologiyaning aniq tarixiy-madaniy jarayonlarini tadqiq qilish tamoyillarini;

- arxeologiyaga oid ma'lumotlarni turli mintaqalar o'tmish tarixi va madaniyati muammolarini o'rganishda foydalanishni;
- turli mintaqalar arxeologik yodgorliklari hamda ularning asosiy davrlari va bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda moddiy madaniyat va ma'naviy madaniyat, unbanizasiya, tarixiy taxliliy tamoyillarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- Arxeologik dala tadqiqot usullari fani bo'yicha ta'limning turli bosqichlarida mashg'ulotlarning turli shakllari va uslublari;
- Arxeologik dala tadqiqot usullari ilmiy tadqiqotlarining uslubiy asoslari;
- arxeologik ma'lumotlardan tarixiy-madaniy jarayonlarni o'rganish, tadqiq etishning uslubiy asoslari;
- arxeologik fanlarning o'rganilish tarixini va ularga oid ilmiy adabiyotlarning tahlil usullari malaksi va tajribasiga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

“Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish” fani asosiy matematik va tabiiy-ilmiy fan hisoblanib, 3 va 4 semestrlarida o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan umumkasbiy fanlar; Paleolit, Antropogenez, Arxeologiyada zamonaviy axborot texnologiyalari, Arxeologiya asoslari, Epigrafika, Numizmatika, Qadimgi Sharq sivilizasiyalari arxeologiyasi fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'tmishining moddiy, ma'naviy va g'oyaviy asoslarini o'rganuvchi fan yo'nalishi bo'lib, arxeologiya sohasini rivojlantirishni, insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyati, etnomadaniy jarayonlari va g'oyaviy qarashlarini o'rganishning uslublarni, ularning namoyon bo'lishidagi tabiiy-ijtimoiy omillari asoslarini o'rganish usullari va istiqbollarni belgilashni, kasbiy ko'nikmasiga yo'naltirilgan kishi faoliyatining vositalari, usullari va uslublari majmuasini o'z ichiga oladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish” fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning fan xususiyatidan kelib chiqqan holda deyarli barchasi tadqiq etilishi mumkin. Xususan, ma'ruza va seminarlar “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Menyu”, “B/B/B”, “Munozara”, “Rezyume” singari metodlar, slaydlar, multmedia, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar, jadvallardan namoyishlari bilan o'tkaziladi.

Bu ta'lim uz mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini tulakonli rivojlanishlarini kuzda tutadi. Bu esa ta'limni loyixalashtirilayotganda,

albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan xolda yondoshilishni nazarda tutadi.

Shaxsga yunaltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha buginlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini akllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahdili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baxolash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs ohirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

"Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimni baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Asosiy qism

Fanning maqsad va vazifasi.

Ma'lumki, arxeologlar yodgorliklarni qazib o'rganish jarayonida turli-tuman manbalarga duch keladilar. Bu manbalardan ilmiy foydalanish uchun arxeologlar birinchi navbatda, topilmalarni avaylab yerdan olish, uni qotirish (konservasiya) va qayta ta'mirlash (restavratsiya) hamda boshqa bir qancha ishlarni amalga oshirish kerak. Arxeologik topilmalarni qazib olish va ularga ishlov berish usullari bilan talabalarni tanishtirish bu maxsus kursning asosiy vazifasidir. Bu usul maxsus laboratoriyalar tomonidan ishlab chiqiladi va doimo takkomillashib bormoqda. Talabalar bu maxsus kurs davomida olgan bilimlarini kurs ishi yozish davomida mustahkamlab boradilar. Ular chizmalar chizish, topilmalarni ta'riflash, kartochkalar tayyorlash, ilmiy adabiyotlardan ko'chirma olish usullari bilan tanishib o'zlarining mustaqil ishlarida ulardan amalda foydalanadilar.

Yangi pedagogik texnologiya: «Klaster» usuli

Arxeologik dala tadqiqot usullari tarixidan.

G'arbiy Yevropa, Rossiya va AQSh arxeologik tadqiqotlari tarixidan. Yaqin Sharq va Misrda G'arb arxeologlarining tadqiqotlari. Shimoliy Qoradengiz bo'yi shaharlari va qo'rg'onlarida rus tadqiqotchilarini olib borgan ishlari. O'rta Osiyo arxeologiyasini rivojlanish davrining boshlanishi. XAEE, TAKE, YuTAKE. So'g'd va Farg'onada olib borilgan tadqiqotlar. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya Institutining tadqiqotlari.

Yangi pedagogik texnologiya: «Bumerang» usuli

Arxeologik qidiruv ishlari.

Tarixiy geologiya. Turli xil davrlarga oid yodgorliklarni ekologik joylashuvi. Aerofotonusxa. Kosmiknusxa. Elektro-magnit qidiruv usullari.

Yangi pedagogik texnologiya: "Texnologik karta" usuli

Dala arxeologiyasiga oid xujjatlar

O'zbekiston Respublikasida qadimiy yodgorliklarni avaylab asrash to'g'risida qabul qilingan qonun va qarorlar. «Ochiq xat» (Ruxsatnoma) olish tartibi va qoidalari.

Manzilgohlar va qabr-qo'rg'onlarni turlari. Qazuv ishlarini boshlashdagi dastlabki usullar. Arxeologik yodgorliklarda to'g'rito'rtburchakli, yarusli, qatlamli va boshqa qazuv ishlar usullari. Qatlam nazariyasi. Suvosti arxeologiyasi. Arxeologik topilmalarni belgilash.

Yangi pedagogik texnologiya: "Blis so'rovnoma" usuli

Har xil turdagi topilmalarni qazib olish va ularga qayta ishlov berish.

Har xil turdagi topilmalarni qazib olish va ularga dastlab ishlov berish usullari. Sopol buyularni qayta tiklash. Tanga pullarni tozalash. Suyak, gazlama, teri, shisha va yog'och buyumlarni tozalash va qayta tiklash. Devoriy suratlarni qazib ochish, tozalash va qayta tiklash usullari. Arxeologik topilmalar sanasini aniqlashning asosiy usullari. Aniq va nisbiy sana. Tanga va yozma manbalar asosida yodgorliklarning sanasini aniqlash. Topilmalarni qiyosiy va badiiy xususiyatlari asosida sanasini aniqlash. Tabiiy fanlarning arxeologik tadqiqot usullarida qo'llanilishi (radiokarbon, kalioargon, dendroxronologik, termolyuminissensiya usullari). Sinxronizasiya.

Yangi pedagogik texnologiya: «Klaster» usuli

Manzilgohlar va qabr-qo'rg'onlarda qazuv ishlarini olib borish usullari.

Chorvadorlarning qabrlari, Kotokomba qabrlar, yorma qabrlar, soxta qabrlar, planigrafik qazishmalar, qabrlarni shurflash. "Nima uchun" diogrammasi

Qadimiy topilmalarni tarkibi va texnologiyasi.

Qadimiy topilmalarni tarkibi va ular sanasini aniqlashning usullari. Optik va spektr analiz. Petrografik va ximik analiz. Temir buyumlarni o'rganish.

Yangi pedagogik texnologiya: "Texnologik karta" usuli

Ilmiy ishlar va hisobotlar tayyorlash.

Qazuv ishlar natijalari asosida ilmiy hisobotlar tayyorlash tartibi. Kurs ishi va bitiruv ishlari yozish. Arxeologik adabiyotlar ustida ishlash. Mutaxassislik bo'yicha kataloglar tuzish.

Yangi pedagogik texnologiya: «Bumerang» usuli

Arxeologik topilmalarga ishlov berish fanining maqsad va vazifasi

Arxeologik topilmalarga ishlov berish va ularni qayta tiklash faniga kirish. Fanning maqsad va vazifalari. Fanning arxeologiya fanlari bilan aloqasi. Dala va laboratoriya sharoitida arxeologik topilmalarga ishlov berish tarixi. Ma'lum xududning iqlim va yer shart – sharoitlarini xisobga olgan xolda topilmalarga baho berish. Arxeologik topilmalarga birlamchi ishlov berish. Arxeologik topilmalarni tiklashda zamonaviy informasion texnologiyalardan foylanish.

Metal buyumlar va mato buyumlar konservasiyasi va restavrasiyasi

Metal tashqi va ichki xususiyatlari. Metal buyumlarining yemirilishi. Rangli metallar. Korroziya turlari. Temir. Kaqzishma jarayonda metal buyumlarni tozalash. Qazishmalar jarayonida nafis metallarni mustaxkamlash. Metal buyumga ishlov berish turlari. Qazishma jarayonida metal buyumlarni ajratib olish. Gips formalar va ularning qo'llanilishi. Mato buyumlar va ularning turlari. Mato topilmalarni qazib olish va tozalash. Mato topilmalarning saqlanish darajasi. Mato buyumlarga ximiyaviy ishlov berish.

Yangi pedagogik texnologiyalar: "Aqliy hujum" usuli

Shisha buyumlar konservasiyasi va restavratsiyasi

Shisha buyumlardan iborat arxeologik topilmalar. Ularning turlari. Yerdagi shisha buyumlarning yemirilishi turlari: mexanik, ximik. Shisha topilmalarning saqlanish darajasi. Qazishma jarayonida shisha buyumlarni tozalash. Shisha buyumlarni mustaxkamlash (qotirish).

Yangi pedagogik texnologiyalar: "FSMU texnologiyasi" usuli

Sopol buyumlar va ularga ishlov berish hamda qayta tiklash

Sopol buyumlar klassifikatsiyasi va tipologiyasi. Sopol buyumlarni qazishma jarayonida qazib ochish va unga qo'yiladigan talablar. Sopol buyumlar tozalash. Sopol buyumlarni tiklash. Sopol buyumlarni qotirish. Sopol buyumlarni maxsus idishlarga joylashtirish.

Yangi pedagogik texnologiyalar: "Bumerang" usuli

Suyakdan ishlangan arxeologik topilmalarga ishlov berish va ularni saqlash

Suyakdan ishlangan buyumlarning asosiy turlari. Tuproqdan suyakdan ishlangan topilmalarning yemirilish darajasini aniqlash. Suyakdan ishlangan topilmalarni tozalash. Ularni maxsus idishlarga joylashtirishdagi asosiy talablar. Laboratoriya sharoitida suyakdan ishlangan topilmalarga ishlov berish yoki ularni tiklash.

Yangi pedagogik texnologiyalar: "Bumerang" usuli

Ilmiy ishlar va hisobotlar tayyorlash.

Qazuv ishlar natijalari asosida ilmiy hisobotlar tayyorlash tartibi. Kurs ishi va bitiruv ishlari yozish. Arxeologik adabiyotlar ustida ishlash. Mutaxassislik bo'yicha kataloglar tuzish.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari

Seminar mashg'ulotlarida talabalar "Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish" fanidan ma'ruza darslari davomida olgan joriy bilimlarini, mustaqil shug'ullanish jarayonida o'zlashtirgan ma'lumotlarni mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyot va tegishli manbalar, hujjatlar va ma'lumotlar bilan tanishish orqali

qo'shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim darajalari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengadi.

Darsning axborot-uslubiy ta'minoti

Dars davomida mavzuni to'liq o'zlashtirish uchun talabalar bilan interfaol pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Mavzu borasida talabalarga videoslayd, ko'rgazmali vositalar, tarqatma materiallar, monologlar, ovozli videoroliklar taqdim etiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslublaridan foydalanadigan o'quv mashg'ulotlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.
Rahbariy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996. Т. 1.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.
4. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш. -Тошкент: Ўзбекистон, 2010.
5. Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини шакллантириш-мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Toshkent. O‘zbekiston, 2011.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент. Ўзбекистон, 2011.
7. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т., Ўзбекистон. 2015.

Asosiy adabiyotlar:

1. Hiroaki Furusho., Shigeo Aoki., Kazuki Sugimoto., Nodoka Inutaka., Yoichi Inoue., Chikara Inoue., Улмасов А., Шерназаров Ш. Археология устахонаси 2011. Т. 2011
2. Colin Renfrew, Paul Bahn. Archaeology. Theories, Methods, and Practice. Canada, 2012
3. Neustupny E. Archaeological Method. Cambridge University Press.2009
4. Connah G. Writing about Archaeology. Cambridge University Press.2010

Qo‘shimcha adabiyotlar

5. Мирзиёв Ш.М. Танкидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир рахбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. Ўзбекистан Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11,
6. Лопатин В. А., Малов Н. М., Мальшев А. Б., Четвериков С. И.. Основы археологии (методика полевых исследований и археологическая практика). Учебно-методическое пособие для студентов исторических факультетов. Саратов 2006
7. Мартынов А.И., Шер Я.А. Методы археологического исследования. М.,2011.

8. 1989. Кошелев И.Н. Магнитная разведка археологических памятников. Учебное пособие. Киев. 2005.
9. Воробьева Г.А., Бердникова Н.Е. Картография для археологов. Учебное пособие. Иркутск. 2007.
10. Басс Джордж. Подводная археология. Древние народы и страны. М.: ЗАО Центрполиграф. 2003.
11. Лунина С.Б. К основным итогам археологических исследований в Узбекистане //Материалы по истории, историографии и археологии. Сборник научных трудов ТашГУ. Т., 1975. № 482.
12. Массон М.Е. Краткий очерк истории изучения Средней Азии в археологическом отношении //Труды САГУ. Новая серия. Вып. 81. Т., 1956.
13. Археологические исследования в зонах мелиорации, итоги и перспективы их интенсификации. Л., 1985.
14. Абдуразаков А.А., Камбаров М.К. Реставрация настенных росписей Афрасиаба. Т., 1975.
15. Герасимова Н.Г., Ногид И.Л., Молчанов В.С. Очистка и сохранение стеклянных предметов в музеях (Из опыта Государственного Эрмитажа) //Художественное наследие (хранение, исследование, реставрация). М., 1975, №1 (31).
16. Усманова З.И. Методические указания полевых исследований для студентов-археологов. Т., 1988.
17. Методика полевых археологических исследований. М., 1983.
18. Крашенинникова Н.И. Методика обработки археологического материала. Т., 1988.
19. Кирьянов А.В. Реставрация археологических предметов. М., 1960.
20. Реставрация, исследование и хранение музейных художественных ценностей (реферативный сборник). М., 1979, вып.4.
21. Ридман О.М., Чепко Е.С., Дереникьян Г.С., Машков А.А. Термический метод консервации сырцовых конструкций //Художественное наследие (хранение, исследование, реставрация). М., 1977, №3 (33).
22. Шапова Ю.Л. Естественно-научные методы в археологии. М., 1988.

Internet saytlari:

23. www.history.ru
24. www.natura.com
25. www.archaeology.ru
26. www.archaeology.com
27. www.ziyonet.uz
28. www.cambridge.co.uk
29. www.oxford.co.uk

